


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Farg'ona viloyatida 4046 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 709 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3324 ta (12,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 29327 tani tashkil etgan.


Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnidagi tadbirdorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,4 % sanoatda, 8,3 % qurulishda, 21,4 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,4 % axborot va aloqa 2,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'ona viloyati	29327	100,0	28922	98,6
Far'gona sh.	5424	18,5	5323	18,2
Qo'qon sh.	4029	13,7	3975	13,6
Quvasoy sh.	869	3,0	857	2,9
Marg'ilon sh.	2880	9,8	2867	9,8
tumanlar				
Oltiariq	1251	4,3	1246	4,2
Qo'shtepa	961	3,3	946	3,2
Bog'dod	991	3,4	988	3,4
Buvayda	1266	4,3	1251	4,3
Beshariq	914	3,1	903	3,1
Quva	1232	4,2	1203	4,1
Uchko'prik	1529	5,2	1491	5,1
Rishton	896	3,1	872	3,0
So'x	715	2,4	715	2,4
Toshloq	1279	4,4	1261	4,3
O'zbekiston	1322	4,5	1311	4,5
Farg'ona	1020	3,5	985	3,4
Dang'ara	1396	4,8	1384	4,7
Furqat	693	2,4	685	2,3
Yozyovon	660	2,3	659	2,2

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 4046 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,2 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (687 ta), Qo'qon (533 ta), Marg'ilon (342 ta) shaharlarda, Oltiariq (240 ta), Uchko'prik (226 ta) va Buvayda (193 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (86 ta) hamda Qo'shtepa (103 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1090 ta), savdoda (808 ta), qurilishda (434 ta), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (238 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (207 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (82ta), tashish va saqlashda (163 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (116 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	154	75,5	7,0	264	171,4	7,9	238	90,2	5,9
Sanoat	618	84,4	28,0	1066	172,5	31,9	1090	102,3	26,9
Qurilish	209	90,1	9,5	244	116,7	7,3	434	177,9	10,7
Savdo	555	92,8	25,1	741	133,5	22,2	808	109,0	20,0
Tashish va saqlash	108	91,5	4,9	188	174,1	5,6	163	86,7	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	89,4	5,7	203	161,1	6,1	207	102,0	5,1
Axborot va aloqa	79	49,7	3,6	102	129,1	3,1	82	80,4	2,0
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	34	89,5	1,5	74	217,6	2,2	116	156,8	2,9
Boshqa turlari	325	129,0	11,9	455	140,0	13,6	908	199,6	22,4


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 23506 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8470 ta, oilaviy korxonalar – 2731 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11622 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 632 tani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumi soni**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 274 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 75 taga yoki 37,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 197 tasi qo'shma korxonalar, 77 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 99 ta (36,1 %), Qo'qon 40 ta (14,6 %), Marg'ilon 20 ta (7,3%), Quvasoy 16 ta (5,8 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 15 ta (5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,7 %), Furqat tumani 3 ta (1,1 %), Qo'shtepa tumani 4 ta (1,5 %), Bag'dod tumani 5 ta (1,8 %),

Buvayda tumani 4 ta (1,5 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishslashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 182 ta (66,4 %), savdoda 36 ta (13,1 %), boshqa turlarida esa 13 ta (4,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 8 ta (2,9 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (2,6 %), qurilishda 7 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 6 ta (2,2 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 70 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga ko'paygan yoki 70.1 foizga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 13 ta, Rossiya Federatsiyasi - 9 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 3 ta, Turkiya Respublikasi - 9 ta, Eron Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston - 2 ta, Buyuk Britaniya -1 ta, Saudiya Arabiston - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 40 ta, savdoda 16 ta, sog'likni saqlashda 3 ta va qurilishda 2 ta, boshqa korxonalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, ularni

	2017 yilyanvar-noyabr		2018 yilyanvar-noyabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan	Jami	Umumiy soniga nisbatan
		%		%
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	2,4	4	5,7
Sanoat	30	73,2	40	57,1
Qurilish	2	4,9	2	2,9
Savdo	4	9,8	16	22,9
Tashish va saqlash	2	4,9	1	1,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	2	4,9	1	1,4
Axborot va aloqa		0,0	1	1,4
Sog'likni saqlash		0,0	3	4,3
Boshqa turlari		0,0	2	2,9


Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 23,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 13,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya`ni 4401 tasi (18,8 %) Farg'ona, 3447 tasi (14,8 %) Qo'qon, 2531 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1274 tasi (5,5 %) Uchko'prik va 1164 tasi (5,0 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6243 tasi (26,7%) – savdoda, 6207 tasi (26,6%) - sanoatda, 2429 tasi (10,4 %) - qurilishda, 1502 tasi (6,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1335 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1164 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 989 tasi (4,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 514 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2971 tasi (12,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 3516 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,6 foizga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (628 ta), Qo'qon (479 ta), Marg'ilon (317 ta) shaharlarida, Oltiariq (212 ta) va Buvayda (184 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (70 ta), Beshariq (101 ta) hamda Qo'shtepa (85 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1088 ta), savdoda (808 ta), boshqa turdag'i xizmatlar (385 ta), qurilishda (433 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (237 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (206 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (82 ta), tashish va saqlashda (163 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (114 ta) tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 2731 tani tashkil etib, ulardan 2707 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi o'rtacha 26,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 48,8 % yoki 1333 tasi sanoat, 13,4 % yoki 366 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,1 % yoki 359 tasi savdo, 9,7 % yoki 264 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 % yoki 65 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 31 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 36 tasi qurilish, 0,9 % yoki 24 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,3 % yoki 253 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat ba qishloq va o'rmon xo'jaligi, savdo, eng kami axborot va aloqa, tashish va saqlash, sog'liqni saqlashda.

**Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-87-37**